

Sud Va Boshqa Organlar Hujjatlari Ijrosiga Oid Qonunchilikka Rioya Etilishi Ustidan Prokuror Nazorati: Predmet, Obyekt Va Prokuror Nazorati Chegarasiga Taalluqli Masalalar

Kamol Karomatovich Mardonov

Toshkent davlat yuridik universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sud hujjatlari ijrosiga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan prokuror nazorati predmeti, obykti va chegarasiga oid masalalar yoritilgan. Muallifning ta’kidlashicha, O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysinuvchi prokurorlar vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Ijro ishi yuritish sohasida davlat ijrochilari tomonidan qonunlarga rioya etilishi, har bir ijro harakatining o‘z vaqtida va qonunga asosan amalga oshirilishi, bu borada fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali ravishda himoya qilinishi ustidan nazorat olib borish prokuratura organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: sud va boshqa organlar hujjatlari, davlat ijrochilari, qonunchilik ijrosini ta’minlash, prokuror nazorati, prokuror nazorati predmeti, prokuror nazorati obykti, prokuror nazorati chegarasi.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokuror nazorati davlat faoliyatining alohida sohasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat prokuror nazoratining alohida muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan “prokuror nazorati” deyilganda, prokurorning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlari, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi ustidan nazoratni

amalga oshirishi tushuniladi¹. Prokuratura organlari tomonidan tegishli tartibda aynan ijro ishi yurituvini tartibga soluvchi qonunlarning ijrosi ustidan nazorat olib borishlari ham umumiy ma'noda qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borish funksiyasi tarkibiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni² bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunning 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Ijro ishi yuritish sohasida davlat ijrochilari tomonidan qonunlarga rioya etilishi, har bir ijro harakatining o'z vaqtida va qonunga asosan amalga oshirilishi, bu borada fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali ravishda himoya qilinishi ustidan nazorat olib borish prokuratura organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

2004-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasining Sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etilgan.

Ushbu boshqarma Bosh prokuraturaning mustaqil tarkibiy tarmog'i hisoblangan. Viloyat prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat bo'limlari tashkil etilgan.

Boshqarmaning asosiy vazifasi sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari bo'yicha ijro ishi yuritish jarayonida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat manfaatlarini himoya qilish, mansabdor shaxslar va ijro ishi yurituvchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining aniq va bir xilda qo'llanilishi ustidan nazorat qilishda namoyon bo'ladi.

Materiallar.

Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda sohaga oid qonunlarga rioya etilishi, amalda mavjud bo'lgan qonunbuzilishlari va muammolarni bartaraf etishda prokuror nazorati samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2015-yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda hamda qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 128-sonli buyrug'i qabul qilindi.

Ushbu buyruq qabul qilinguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 11-maydagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda hamda qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 24-sonli buyrug'i amalda bo'lgan. Avvalgi 24-sonli Bosh prokuror buyrug'idan 128-sonli buyruq qoidalarning bir qancha afzallik jihatlari mavjud. Xususan, ushbu buyruq asosida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish sohasida prokuror faoliyatining asosiy mezonlari batafsil ishlab chiqilgan bo'lib ular quyidagilardir:

- faoliyatning tizimli tahlil asosida tashkil etilganligi, nazoratning samaradorligi va sohada aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilganligi, shu jumladan, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritilganligiga;
- sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda undiruvning amalda ta'minlanishi orqali fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishiga erishilganligi;

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ // А.А.Азизхўжаев (ва бошқ.); Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик ин-ти. – Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 489-490-б.

² Ўзбекистон Республикасининг "Прокуратура тўғрисида"ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 01.06.2022 й., 03/22/772/0460-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 31.10.2023 й., 03/23/873/0808-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 19.02.2024 й., 03/24/909/0133-сон. <https://lex.uz/docs/106197>

- tekshirishlarning qonun doirasida, har tomonlama, to‘liq va xolisona o‘tkazilganligi, prokuror nazorati hujjatlarining asosli va sifatliigi;
- sohaga oid murojaatdarning belgilangan muddatlarda qonuniy hal etilganligi;
- prokuratura xodimlarining kasb mahoratini oshirish borasidagi tadbirlar samaradorligi;
- sohadagi prokuror faoliyatining takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilganligi.

Bugungi kunga qadar, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining nazariy asoslari adabiyotlarda yoritilmagan. Sababi, ushbu mavzu doirasida mamlakatimiz miqyosida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Ijro ishi yuritish sohasida qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunda va boshqa yuridik adabiyotlarda ham umumiy ma’nodagi prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish yo‘nalishi doirasidagi funksiyalar qatoriga kiritib ketilgan.

Lekin, hozirgi paytda amaliyot natijalariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, sud hujjatlari va boshqa orgalar hujjatlarini ijro etishda ijro ishini yuritishga vakolatli orgalar tomonidan sohaga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining aniq yo‘nalishlarini ishlab chiqilishi ham ancha dolzarb masala hisoblanadi.

Shu sababli, mazkur masalaning dolzarbligi hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyatini, amaliyotda eng ko‘p uchrayotgan qonun buzilish holatlari va kamchiliklarni o‘rgangan holda belgilansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tadqiqot va usullar.

O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni ta‘minlashda prokuror nazoratining asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini belgilangan tartib va umumiy shartlarga amal qilgan holda ijro etilganligiga;
- majburiy ijro etish asoslari va choralarining qonunga muvofiqligiga;
- undiruvni qarzdorning mol-mulki yoki ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlariga qaratishning asosliigi;
- qarzdorning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish choralarini ko‘rilganligiga;
- qarzdorning mol-mulki belgilangan tartibda, oshkora va bozor qiymatida haqqoniy baholanib, realizatsiya qilinganligiga;
- mulkiy hususiyatga ega bo‘lmagan nizolar bo‘yicha ijro hujjatlarining ijro etish shartlariga amal qilinganligiga;
- undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning qat‘iy navbatiga rioya etilganligiga alohida e‘tibor qaratish;
- ijro hujjatlarini ro‘yxatga olish, ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish, ijro harakatlarini olib borish, to‘xtatish va tamomlash va tugatishda muddat va tartibga rioya qilinishi ustidan qat‘iy nazoratni ta‘minlash;
- qonunchilikda darhol ijro etilishi belgilangan, ya‘ni alimentlar hamda uch oydan oshmagan ish haqini undirish; qonunga xilof ravishda mehnat shartnomasi bekor qilingan yoki qonunga xilof ravishda boshqa ishga o‘tkazilgan xodimni ishga tiklash to‘g‘risidagi, mehnat shartnomasini bekor qilish asosining ta‘rifini o‘zgartirish to‘g‘risidagi, shuningdek ijro hujjatida bayon etilgan talablar darhol ijro etilishi hujjatda ko‘rsatilgan yoki darhol ijro etilishi qonunda nazarda tutilgan hollardagi boshqa ishlarga doir talablarning ijrosi ustidan muntazam nazorat o‘rnatish;

- jarima tariqasidagi jazo ijro etilishining ahvolini tekshirishda, mahkum xukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oylik (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar olti oylik) muddat ichida jarimani ixtiyoriy ravishda to'lmagan taqdirda majburiy undirish bo'yicha ijro harakatlari o'tkazilganligiga; jarima tariqasidagi jazoni jazoning boshqa turi bilan almashtirishda qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarga rioya etilganligiga alohida e'tibor qaratish.

Ta'kidlab o'tish joizki, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etilishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati yo'nalishlarini aniq chegarasini o'rnatish mumkin emas. Chunki har qaysi sohada ham muntazam ravishda qonunchilikka rioya etilish ahvoli o'rganilmas ekan, qonunbuzilishiga shart-sharoit yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan ijro ishi yuritish sohasidagi prokuror nazoratning yo'nalishlari hozirgi paytda amaliyotda eng muhim e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar hisoblanadi. SHu sababdan ijro ishi yuritish sohasidagi prokuror nazorati yo'nalishlarini yanada kengroq miqyosda o'rganish ham mumkin.

Milliy qonunchiligimiz doirasida ijro ishi yuritish qoidalariga rioya etilmasligi tegishli tartibda javobgarlikni yuzaga keltiradi.

Ijro ishi yuritish sohasida davlat ijrochilari tomonidan qonunlarga rioya etilishi, amaliyotda yuzaga kelayotgan qonun buzilishlari va ularni yuzaga kelishiga zamin yaratayotgan shart-sharoitlar prokuratura organlari tomonidan nazorat qilib boriladi. Majburiy ijro byurosi faoliyatida ijro ishi yuritish to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilinishi ahvoli esa O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari xodimlari tomonidan har yarim yilda kamida bir marta tekshirib boriladi.

Tekshirishga kompleks yondashilib, bu jarayonda:

- hisobotlarga asosan qoldiqdagi ijro hujjatlarining mavjudligi, ijro hujjatlarini yashirish holatlari aniqlanadi;
- ijrosi to'liq ta'minlanmagan ijro hujjatlari bo'yicha undiruvlar to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini sudlar, banklar va boshqa vakolatli davlat organlaridan tegishli ma'lumotlarni olgan holda solishtirmalar o'tkazish orqali o'rganiladi;
- davlat ijrochilarining qarzdorning mol mulkini sotishdagi suiiste'molliklari, ayniqsa ko'chmas mulk obyektlari va avtotransport vositalari narxini qasddan kamaytirishlari, shuningdek, ijro ishini yuritishdagi sansalorlik va muddat buzilish holatlariga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Natijalar.

Davlat ijrochilari tomonidan sohaga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati qonunchilik ijrosini tekshirish orqali olib boriladi. Bunda qonun buzilish holatlari qonuniylik ahvolidan monitoringi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, nazorat-tekshiruv organlarining materiallarini ko'rib chiqish orqali aniqlanadi. Prokuratura xodimlari tomonidan olib borilgan tekshiruvlar davomida davlat ijrochilarining qonun buzishlari yoki tegishli qonun normalariga rioya etmaslik holatlari aniqlanganida, avvalo, qonun buzilishiga huquqiy baho beriladi. Nazorat olib boruvchi prokuror qonun buzilishining xususiyatlari va javobgarlik asoslarini aniqlaydi hamda uning turini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunchilik ijrosi ustida prokuror nazorati olib borishga mas'ul bo'lgan boshqarma yoki hududiy bo'limlari xodimlari tomonidan javobgarlik chorasini qo'llash masalalari hal qilinadi. Qonun buzilishlarining xususiyatiga qarab, O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 37-moddasida keltirilgan jinoiy, ma'muriy, intizomiy yoki moddiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror yoxud boshqa prokuror nazorati hujjatlaridan biri qo'llaniladi.

Shunday qilib, sohada qonunchilik ijrosiga doir o'tkazilayotgan tekshirishlarda aniqlangan qonun buzilishi holatlari, ularni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni tegishli prokuror nazorati hujjatlarini qo'llash orqali bartaraf etish choralari ko'riladi.

Prokuratura organlari tomonidan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya qilinishi ahvoli tizimli tahlillar asosida har yarim yilda umumlashtirilib, uning natijalariga ko'ra qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni bartaraf etish hamda qonunchilikni va ushbu sohadagi amaliyotni takomillashtirish borasida aniq takliflar berib boriladi³.

Bundan tashqari prokuratura organlari ijro hujjatlari bo'yicha ma'lumotlarning elektron bazaga o'z muddatida, to'liq va haqqoniy kiritib borilishi ustidan ham tizimli nazorat olib boradilar. Bu jarayonda sudlar va boshqa vakolatli davlat organlaridan tegishli ma'lumotlar olgan holda solishtirmalar o'tkaziladi.

Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining asosiy yo'nalishlari doirasida o'rganilgan va to'plangan amaliyot hujjatlari asosida ayrim davlat ijrochilari o'z mehnat faoliyatlarida qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yganliklariga oid amaliyot hujjatlarini o'rganish mazkur mavzuning amaliy jihatlarini yanada ochib beradi. O'tkazilgan tekshirish natijalariga ko'ra, davlat ijrochilari tomonidan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni va sohaga oid boshqa qonunlarga rioya qilish davomida yuklatilgan vazifalarni hamda nazoratni yetarli darajada bajarilmayotganligi aniqlangan.

Xususan, Majburiy ijro byurosi Buloqboshi tuman bo'limi davlat ijrochisi U.X. tomonidan uning ish yurituvida bo'lgan Fuqarolik ishlari bo'yicha Xo'jaobod tumanlararo sudining 2019-yil 27-sentabrdagi qarzdor P.R.dan undiruvchi foydasiga 223.000 ming so'm undirish to'g'risidagi ijro hujjati yuzasidan 2020-yil 25-martda ijro ishini yurituvni tamomlash va ijro hujjatini undiruvchiga qaytarish to'g'risida qaror qabul qilingan⁴. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni 40-moddasi 3-bandiga ko'ra agar qarzdorning undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki yoki daromadlari bo'lmasa va uning mol-mulki yoki daromadlarini qidirish yuzasidan davlat ijrochisi tomonidan qonunda yo'l qo'yiladigan doirada ko'rilgan barcha choralar natijasiz bo'lsa ijro hujjati undiruvchiga qaytarilishi ko'rsatilgan.

Shuningdek, ushbu moddada mazkur modda birinchi qismining 3, 4 va 5-bandlarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha undiruvni amalga oshirish mumkin bo'lmagan taqdirda, davlat ijrochisi bu haqda tegishli dalolatnoma tuzishi, dalolatnomani katta davlat ijrochisi tasdiqlashi mustahkamlangan.

Lekin, mazkur holatda ishda bunday dalolatnoma mavjud emas. Bundan tashqari, ijro hujjati yuzasidan qarzdorning yashash xonadoni ko'zdan kechirilmasdan, qarzdorning mol-mulklarini aniqlash uchun barcha zarur ijro harakatlari oxirigacha o'tkazilmasdan ijro ishi yuritishni tamomlash va ijro hujjati undiruvchiga qaytarish to'g'risida qaror qabul qilgan.

Muhokamalar.

Yuqoridagilarga ko'ra O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni 38-moddasiga ko'ra Majburiy ijro byurosi Buloqboshi tuman bo'limi davlat ijrochisi U.X. tomonidan ijro ishini yurituvni tamomlash va ijro hujjatini undiruvchiga qaytarish to'g'risida qarorini bekor qilish yuzasidan protest kiritilgan.

Sud ijrochilari tomonidan ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni 27-moddasida keltirilgan qoidalarga rioya qilmasdan ijro ishini yuritish to'g'risidagi qaror chiqarish holatlari ham uchraydi. Masalan, Xorazm viloyati IIB YHXB inspektorining 2019-yil 22-fevraldagi huquqbuzar Yu.E.ga nisbatan 101365

³ "Суд хужжатлари ва бошқа органлар хужжатларини ижро этишда ҳамда камоққа олинганларни сақлашда қонунларга rioya этилиши устидан нazorat самарадорлигини ошириш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2015 йил 28-декабрдаги 128-сон буйруғи. (8-банди)

⁴ Андижон вилояти прокуратураси архивидан, 2020 йил.

so‘m jarima solish to‘g‘risidagi qaroriga asosan Majburiy ijro byurosi Hazorasp tuman bo‘limi davlat ijrochisi R.A. tomonidan 2019-yil 28-iyunda qarzdordan jarima undirish bo‘yicha ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish bo‘yicha qaror qabul qilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonuni 27-moddasi birinchi qismi 5-bandiga ko‘ra ishlarni ma‘muriy tartibda ko‘rish vakolatiga ega organlarning (mansabdor shaxslarning) qarorlari — uch oy mobaynida ijroga topshirilishi belgilangan.

Biroq, shunga qaramasdan ma‘muriy jazo qo‘llash haqida qaror qabul qilingan kundan 4 oydan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsada davlat ijrochisi R.A. tomonidan 2019-yil 28-iyundagi qaroriga asosan qarzdor Yu.E.dan davlat foydasiga 101365 so‘m ma‘muriy jarima undirilishi belgilangan. Yuqoridagilarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 38-moddasiga ko‘ra Majburiy ijro byurosi Hazorasp tuman bo‘limi davlat ijrochisi R.A. ma‘muriy jarima undirish haqidagi ijro hujjati bo‘yicha ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorini bekor qilish yuzasidan protest kiritilgan⁵.

Prokuratura xodimlarining ijro ishi yuritish to‘g‘risidagi bir qator protestlarini o‘rganib chiqish natijasida shu va shunga o‘xshagan holatlarni ko‘plab kuzatish mumkin.

Ulardan yana birida, jumladan quyidagicha: MIB Zangiota tumani bo‘limi tomonidan 98,4 mln so‘mlik 435 ta ijro hujjatlari tegishli qonunlarga zid ravishda tugatilib, MIB portali dasturiga soxta hujjat va kvitantsiyalar, ijro ishlariga aloqasi yo‘q hujjatlar asos sifatida ko‘rsatilib biriktirilgan. Mazkur holat yuzasidan Toshkent viloyati prokuraturasi jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror qabul qilgan⁶.

Xulosa.

Majburiy ijro byurosi organlari tomonidan nomulkiy tusdagi ijro ishlarini yuritishga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Bunday ijro hujjatlari ijrosi alohida yondashuv talab etishining sababi ijro harakatlari davrida taraflar o‘rtasidagi nizo yuqori nuqtaga ko‘tarilishi, aksar hollarda, turli qarshilik ko‘rsatish holatlari ham uchrab turishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda, Byuro xodimlari belgilangan tartibda ijro harakatlarini olib borib, sud qarorining ijrosini ta‘minlab kelmoqda. Byuroning Andijon viloyati boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari ish yurituvida joriy yilning 1 avgust holatiga 1 709 ta nomulkiy toifadagi ijro ishlari bo‘lib, ulardan 417 tasi bola bilan ko‘rishtirish, 351 tasi uy-joy yoki qurilmalarni buzish, 264 tasi uy-joydan yoki binodan chiqarish yoxud kiritish bilan bog‘liq va boshqa mazmundagi ijro hujjatlarini tashkil etadi. O‘tgan oy davomida mazkur ijro hujjatlaridan 169 tasining ijrosi amalda tamomlanishiga erishilgan. Tadqiqot davomida aniqlangan mazkur holatlar sud hujjatlarini ijro etish tizimidagi mavjud kamchiliklar, muammolarni ko‘rsatadiki, ularni hal etish odil sudlovni, huquq ustuvorligiga erishish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytganda, davlat ijrochilari tomonidan sohaga oid qonunlarga rioya etilishini ta‘minlashda prokuror nazorati qonunchilik ijrosini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda qonun buzilishi holatlari, qonuniylikni monitoring qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda nazorat va tekshiruv organlarining materiallarini ko‘rib chiqish orqali aniqlanadi. Prokuratura xodimlari tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlar davomida, agar davlat ijrochilari tomonidan qonun buzilishi yoki tegishli qonun normalariga rioya etmaslik holatlari aniqlansa, avvalo, qonun buzilishi holatiga huquqiy baho beriladi. Nazoratni olib boruvchi prokuror qonun buzilishining xususiyatlarini aniqlaydi, javobgarlik asoslarini belgilaydi hamda uni qanday turdagi javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkinligini aniqlaydi. Agar qonun buzilishi tasdiqlansa, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining tegishli bo‘limlari tomonidan javobgarlik choralari qo‘llaniladi. Qonun buzilishining xususiyatiga qarab, O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunining 37-moddasida belgilangan jinoiy, ma‘muriy, intizomiy yoki moddiy javobgarlikni talab qiladigan ishlar ochilishi yoki boshqa prokuror nazorati hujjatlari qo‘llanilishi mumkin.

⁵ Хоразм вилояти прокуратураси архивидан, 2020 йил.

⁶ Тошкент вилояти прокуратураси архивидан, 2023 йил.

Shunday qilib, sohada qonunchilik ijrosini tekshirish jarayonida aniqlangan qonun buzilishlari va ularni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlar tegishli prokuror nazorati hujjatlari orqali bartaraf etiladi. Prokuratura organlari tomonidan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya qilinishini tizimli tahlil qilish har yarim yilda amalga oshiriladi va natijalariga asoslanib, qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolarni bartaraf etish, shuningdek, qonunchilikni va amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

References

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарх // А.А.Азизхўжаев (ва бошқ.); Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик ин-ти. – Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 489-490-б.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 01.06.2022 й., 03/22/772/0460-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 31.10.2023 й., 03/23/873/0808-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 19.02.2024 й., 03/24/909/0133-сон. <https://lex.uz/docs/106197>
3. “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этишда ҳамда қамоққа олинганларни сақлашда қонунларга rioya этилиши устидан назорат самарадорлигини ошириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2015 йил 28-декабрдаги 128-сон буйруғи. (8-банди)
4. Андижон вилояти прокуратураси архивидан, 2020 йил.
5. Хоразм вилояти прокуратураси архивидан, 2020 йил.
6. Тошкент вилояти прокуратураси архивидан, 2023 йил.
7. Бурхонова Г.Ш. “Мажбурий ижро тизими бошқарув фаолиятини ҳуқуқий таъминлаш масалалари: қиёсий-ҳуқуқий таҳлил” мавзусидаги юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Т., Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратура Академияси, 2022. –Б.79.
8. Исаенкова О.В. Государственные и частные начала в системе принудительного исполнения: поиск оптимального сочетания. Сборник материалов 9-Международной научно-практической конференции 10-13 октября 2018, – Сочи, Краснодарский край. – С. 312.
9. Немеллер М. Уголовное судопроизводство и роль прокуратуры в Германии // Советская юстиция. 1994. № 10. С. 29.
10. А.Т.Алламурастов, Ж.А.Раҳманов. Хорижий мамлакатларда прокуратура. Ўқув-қўлланма. Масъул муҳаррир: ю.ф.н. О.М.Мадалиев. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007. –34-35 бет.